



**QO'LYOZMA MANBALARNI O'RGANISHDA
MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIK TAMOYILLARI:
PORSO SHAMSIYEV MISOLIDA**

Sotvoldiyev Fayzulla Sayfulla o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti "teologiya" yo'nalishi

4-bosqich talabasi

fayzulloh9927@gmail.com

Ilmiy rahbar

Abdullayev Alisher

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti Ilmiy tadqiqot faoliyatini

tashkil etish sektori boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo'lyozma merosni ilmiy o'rganishda manbashunoslik va matnshunoslik fanlarining o'zaro aloqasi, farqli vazifalari hamda uslubiy tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda manbashunoslik yozma manbaning kelib chiqishi, muallifga nisbati, nusxalari, tarixiy-hujjatlik qiymati va ilmiy muomaladagi o'rnini aniqlovchi soha sifatida, matnshunoslik esa mavjud nusxalar asosida muallifga yaqin, ishonchli va ilmiy asoslangan matnni tiklovchi mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida talqin etiladi. Maqolada har bir matn turining o'ziga xos tahqiq mezonlari mavjudligi asoslanadi: adabiy matnda vazn, qofiya, uslub va badiiy tizim; fiqhiy matnda istiloh, hukm va tarjih iboralari; hadis sharhi matnida sanad, roviy nomlari va rivoyat yo'llari; kalom matnida aqidaviy istiloh va mantiqiy izchillik alohida metodologik ahamiyatga ega ekani ko'rsatib beriladi. Porso Shamsiyev tajribasi esa o'zbek adabiy matnshunosligida manbashunoslikdan matnshunoslikka o'tish jarayonining amaliy namunasi sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: manbashunoslik, matnshunoslik, qo'lyozma, nusxa, tahqiq, tashih, muqobala.

Kirish

Yozma merosni ilmiy o'rganish faqat qadimiy matnlarni topish, ularni nashrga tayyorlash yoki zamonaviy o'quvchiga taqdim etish bilan cheklanmaydi. Har bir qo'lyozma manba o'zida muayyan tarixiy davr, ilmiy muhit, muallif tafakkuri, kotib faoliyati, nusxa tarixi va matniy qatlamlarni



mujassam etadi. Shu sababli qo‘lyozma meros bilan ishlashda ikki asosiy ilmiy bosqich muhim o‘rin tutadi: birinchisi – manbani tanish va baholash, ikkinchisi – matnni tiklash va ilmiy asoslash. Birinchi bosqich manbashunoslik doirasiga, ikkinchi bosqich esa matnshunoslik doirasiga kiradi.

Manbashunoslik va matnshunoslik bir-biriga yaqin sohalar bo‘lsa-da, ularni bir xil fan sifatida talqin qilish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Manbashunoslik yozma manbaning kelib chiqishi, muallifga nisbati, yaratilgan davri, qo‘lyozma nusxalari, saqlanish joyi, tarixiy va ilmiy qiymatini aniqlaydi. Matnshunoslik esa shu manba tarkibidagi matnning nusxaviy tarixi, variantlari, xatolari, tahririy o‘zgarishlari va muallifga eng yaqin shaklini tiklash bilan shug‘ullanadi. Demak, manbashunoslik “bu qanday manba?” degan savolga, matnshunoslik esa “bu manbaning qaysi matni ishonchliroq?” degan savolga javob beradi.

Qo‘lyozma merosni ilmiy o‘rganishda bu farq nihoyatda muhimdir. Agar manbaning muallifga nisbati, nusxalari va tarixiy maqomi aniqlanmasa, uning asosida yaratilgan matnshunoslik xulosalari ham zaif bo‘ladi. Aksincha, qo‘lyozma haqida tashqi ma’lumotlar berilib, uning ichki matni, variantlari va nusxaviy farqlari tahlil qilinmasa, tadqiqot tavsifiy bosqichda qoladi. Shu bois manbashunoslik va matnshunoslikni bir-biridan ajratish emas, balki ularning ilmiy vazifalarini aniq belgilash zarur.

Mazkur maqolaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, qo‘lyozma merosni o‘rganishda manbashunoslik va matnshunoslik bir-birini to‘ldiradi, ammo ular alohida predmet va uslubiyatga ega mustaqil ilmiy yo‘nalishlardir. Har bir matn turi ham o‘ziga xos tahqiq mezonlarini talab qiladi. Adabiy matnni tekshirish mezoni bilan fiqhiy matnni, hadis sharhi usuli bilan kalomiy matnni, tarixiy manba mezoni bilan tasavvufiy matnni bir xil usulda tahlil qilish ilmiy xatoga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan, Porso Shamsiyev tajribasi o‘zbek adabiy matnshunosligida muayyan matn turining ichki qonuniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-tanqidiy matn yaratishning muhim namunasi sifatida qaraladi.

Manbashunoslik: manbaning tarixiy hujjatlik maqomini aniqlash ilmi

Manbashunoslik yozma manbani ilmiy tadqiqot obyekti sifatida aniqlash, tavsiflash va baholash bilan shug‘ullanadi. Uning asosiy vazifasi manbaning kimga tegishli ekani, qachon va qanday sharoitda yuzaga kelgani, qanday nusxalarda saqlangani, qaysi ilmiy muhitda tarqalgani, boshqa manbalar bilan



qanday aloqada ekani va ilmiy muomaladagi qiymatini aniqlashdan iborat. Shu ma'noda manbashunoslik qo'lyozmaning tashqi tarixi va hujjatlik maqomini o'rganadi.

Manbashunoslikda birinchi masala: manbaning muallifga nisbatini aniqlashdir. Qo'lyozma muqovasida yoki kolofonida bir muallif nomining yozilishi bu nisbatning mutlaq ishonchli ekanini anglatmaydi. Kotiblar, keyingi egalari yoki kutubxona tartibchilari tomonidan noto'g'ri nisbatlar berilishi mumkin. Shuning uchun muallif nisbati boshqa nusxalar, fihristlar, tazkiralar, tabaqot kitoblari, asarning ichki ishoralari, uslubiy belgilar va muallifning boshqa asarlari bilan solishtirish orqali tekshiriladi³.

Ikkinchi masala: qo'lyozma nusxaning tashqi belgilarini o'rganishdir. Bunga nusxaning saqlanish joyi, fond va inventar raqami, varaqlar soni, o'lchami, qog'oz turi, siyoh xususiyati, xat turi, kotib nomi, ko'chirilgan sanasi, kolofoni, muqovasi, hoshiyalari, egalik qaydlari va muqobala belgilarini aniqlash kiradi. Bu belgilar qo'lyozmaning tarixiy yo'lini, undan qanday ilmiy muhitda foydalanilganini va uning ishonchlilik darajasini baholashga yordam beradi.

Uchinchi masala: manbaning ilmiy muomaladagi o'rnini aniqlashdir. Bir asarning keyingi olimlar tomonidan o'qilishi, undan iqtibos qilinishi, unga sharh yoki hoshiya yozilishi, dars halqalarida qo'llanishi uning ilmiy an'anadagi mavqeini ko'rsatadi. Ayniqsa Sharq ilmiy muhitida matn faqat yozilgan hujjat emas, balki ustoz-shogird aloqasi, o'qish, eshitish, tashih, muqobala va ijozat kabi jarayonlar orqali yashagan ilmiy meros sifatida qaralgan. Shu bois manbashunoslik manbani faqat fizik predmet sifatida emas, balki ilmiy silsila ichidagi hodisa sifatida ham o'rganadi.

Demak, manbashunoslikning asosiy natijasi hali tanqidiy matn yaratish emas. Uning asosiy natijasi manbaning ilmiy maqomini belgilashdir. Bu maqom aniqlangandan keyingina matnshunoslik bosqichi boshlanadi.

Matnshunoslik: matnning ichki tarixini tiklash ilmi

Matnshunoslik qo'lyozma yoki bosma nusxalarda saqlangan matnni ilmiy asosda tiklash bilan shug'ullanadi. Uning markazida manba emas, balki manba

³ Abdussalom Muhammad Horun. Tahqiq an-nusus va nashruha. – Qohira: Maktabat al-Xonji, 1998. – B. 15–41.



tarkibidagi matn turadi. Bu jihatdan matnshunoslikning asosiy vazifasi mavjud nusxalarni qiyoslash, variantlarni aniqlash, xatolarni ajratish, muallifga yaqin o'qishni belgilash va ilmiy-tanqidiy matn yaratishdan iborat.

Matnshunoslikning birinchi tamoyili: nusxalarni imkon qadar keng aniqlashdir. Bir asarning bitta nusxasi mavjud bo'lsa, muhaqqiq undagi o'qishni ehtiyotkorlik bilan baholaydi. Ammo bir nechta nusxa mavjud bo'lsa, ularning o'zaro qiyosi matn tarixini tiklash imkonini beradi⁴.

Ikkinchi tamoyil: muqobala, ya'ni nusxalarni qiyosiy solishtirishdir. Muqobala faqat variantlarni ro'yxatlash emas. Unda har bir farqning sababi, paydo bo'lish yo'li, matn mazmuniga ta'siri va muallif uslubiga munosabati tekshiriladi. Kotib xatosi, tushib qolish, orttirish, izohning matnga kirib ketishi, bir so'zning boshqa so'z bilan almashtirilishi, matnning keyingi davrda soddalashtirilishi kabi holatlar muqobala jarayonida aniqlanadi.

Uchinchi tamoyil: variantlarni tarjih qilishdir. Matnshunos barcha nusxalarni teng qabul qilmaydi; u mavjud o'qishlar orasidan eng asoslisini tanlaydi. Bu tanlov mexanik tarzda emas, balki dalil asosida amalga oshiriladi. Qadimiyroq nusxa doimo eng sahih nusxa bo'lavermaydi. Ba'zan keyingi nusxa ishonchli manbadan ko'chirilgan, muqobala qilingan yoki ilmiy muhitda tashihdan o'tgan bo'lishi mumkin. Shu sababli variant tanlashda nusxa yoshi, matnning ichki mantiqi, muallif uslubi, til xususiyati, vazn, istiloh va boshqa omillar birgalikda baholanadi.

To'rtinchi tamoyil: muhaqqiqning matnga aralashish chegarasidir. Muhaqqiq muallif o'rniga matn yaratmaydi. U matnni zamonaviylashtirish, o'z didiga moslashtirish yoki tushunarli qilish maqsadida o'zgartirishga haqli emas. Agar matn murakkab bo'lsa, izoh beriladi; agar variantlar mavjud bo'lsa, apparatda ko'rsatiladi; agar xato aniq bo'lsa, asosli tashih qilinadi. Lekin har qanday tuzatish dalil bilan bog'lanishi kerak⁵.

Beshinchi tamoyil: ilmiy apparatni shakllantirishdir. Ilmiy-tanqidiy matnda qo'lyozma farqlari, tushib qolgan yoki orttirilgan o'rinlar, muhim variantlar, shaxs va joy nomlari, iqtiboslar, oyat, hadis, she'r, tarixiy voqea,

⁴ Bashshor Avvod Ma'ruf. Zobt an-nass vat-ta'liq alayh. – Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2019. – B. 16–24.

⁵ Bashshor Avvod Ma'ruf. Zobt an-nass vat-ta'liq alayh. – Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2019. – B. 76.



istiloh va boshqa zarur ma'lumotlar izohlanadi. Ilmiy apparat matnga qo'shimcha bezak emas, balki uning ilmiy ishonchliligini ta'minlovchi asosiy vositadir.

Har bir matn turining o'ziga xos uslubi

Matnshunoslikning eng muhim metodologik masalalaridan biri shuki, barcha matnlarni bir xil usul bilan tahqiq qilib bo'lmaydi. Har bir ilm sohasining o'z predmeti, istilohi, dalillash usuli va matn ichki mantiqi bor. Shu sababli muhaqqiq faqat umumiy filologik qoidalarni bilishi bilan kifoyalanmasligi, balki tahqiq qilayotgan matn mansub bo'lgan ilmning ichki uslubi

Adabiy matnlarni tahqiq qilishda vazn, qofiya, radif, badiiy san'atlar, obrazlar tizimi, muallif uslubi, davr tili va janr xususiyatlari alohida ahamiyatga ega. Masalan, bir baytdagi bitta so'z o'zgarishi aruz vaznini buzishi, qofiyani izdan chiqarishi yoki badiiy ishorani yo'qotishi mumkin. Shuning uchun adabiy matnshunoslikda variant tanlashda faqat qo'lyozma yoshi emas, balki badiiy-matniy uyg'unlik ham muhim mezon bo'ladi.

Fiqhiy matnlarni tahqiq qilishda esa mezon boshqacha. Bu yerda "farz", "vojib", "sunnat", "mustahab", "makruh tahrimiy", "makruh tanzihiy", "sahih", "fosid", "botil", "shart", "rukn", "sabab", "mone" kabi istilohlar oddiy lug'aviy birlik emas, balki hukm hosil qiluvchi ilmiy tushunchalardir. Hanafiy fiqh matnlarida "عِنْدَ", "عِنْدَ أَبِي يُوسُفَ", "قِيلَ", "وَهُوَ الْأَصَحُّ", "عَلَيْهِ الْفَتْوَى", "وَبِهِ يُفْتَى" kabi iboralar mazhab ichidagi tarjih darajasini bildiradi. Bunday iboralardagi kichik farq matn mazmuniga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois fiqhiy matnni tahqiq qiluvchi kishi arab tili bilan birga fiqh va usul al-fiqh istilohlarini ham chuqur bilishi kerak⁶.

Kalom matnlarida esa "javhar", "araz", "hodis", "qadim", "sifat", "iroda", "qudrat", "kasb", "takvin", "hikmat" kabi istilohlar aqidaviy tizim ichida anglanadi. Bu istilohlarni oddiy falsafiy yoki lug'aviy ma'noda talqin qilish matnning mazmunini buzishi mumkin. Moturidiy kalom matnlarini tahqiq qilishda muhaqqiq matnning mantiqiy izchilligi, dalillash tartibi va aqidaviy maktab ichidagi istilohiy qatlamini hisobga olishi zarur. Imom Abu Mansur

⁶ Abdulaziz al-Buxoriy. Kashf al-asrar an Usul Faxr al-Islam al-Bazdaviy. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1997. – J. I. – B. 34–67.



al-Moturidiy “Kitob at-Tavhid”da ilohiy sifatlar, inson fe’li, aql va naql munosabati kabi masalalarni o’ziga xos uslubiy qat’iyat bilan bayon qiladi⁷.

Hadis sharhi matnlarida sanad, roviy ismlari, nisbatlar, rivoyat yo’llari va hadis manbalari birinchi darajali ahamiyatga ega. Bir roviy nisbatining noto’g’ri o’qilishi yoki bir ismning boshqa ism bilan almashtirilishi rivoyatni tushunishda jiddiy xatoga olib kelishi mumkin. Masalan, “النصري” va “البصري”, “الحسن” va “الحسين” kabi yaqin shakllarning chalkashishi hadis ilmi uchun oddiy imloviy xato emas, balki ilmiy muammo hisoblanadi. Bashshor Avvud Ma’ruf hadis sharhi va tarjima-tabaqot matnlarida muallif foydalangan manbalarni aniqlash ba’zan qiyin bo’lishini, chunki ularning ko’pi bevosita kitob nomi sifatida emas, balki rivoyat zanjiri yoki ustoz-shogird aloqasi orqali namoyon bo’lishini ta’kidlaydi⁸.

Tafsir matnlarida esa qiroat farqlari, Qur’on rasmi, sabab an-nuzul rivoyatlari, lug’aviy dalillar, nahviy tahlil, oldingi mufasssirlar fikri va hadislar bilan bog’liq ma’lumotlar muhimdir. Bir qiroat farqi yoki bir grammatik talqinning o’zgarishi oyat ma’nosini tushunishga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli tafsir matnlarini tahqiq qilishda muhaqqiq faqat matnshunos emas, balki qiroat, tafsir, hadis, lug’at va nahv ilmlaridan ham xabardor bo’lishi kerak.

Tarixiy manbalarda esa sana, joy nomlari, shaxslar, nasablar, voqealar ketma-ketligi va boshqa tarixiy manbalar bilan qiyos muhimdir. Tarixiy matnni tahqiq qilishda bitta sana yoki shaxs nomidagi xato voqealar zanjirini buzishi mumkin. Demak, tarixiy matnshunoslikda asosiy mezon faktlar izchilligi, voqealar muvofiqligi va boshqa manbalar bilan taqqoslashdir.

Bu misollar shuni ko’rsatadiki, matnshunoslik umumiy qoidalarga ega bo’lsa-da, u har bir matn turida o’ziga xos shaklda qo’llanadi. Haqiqiy matnshunoslik aynan shu yerda ko’rinadi: muhaqqiq matnga tashqaridan umumiy qolip tiqishtirmaydi, balki matn mansub bo’lgan ilmning ichki mezonlari asosida ishlaydi.

⁷ Abu Mansur al-Moturidiy. Kitob at-Tavhid. Tahqiq: Fathulloh Xulayf. – Iskandariya: Dor al-Jamiat al-Misriyya, 1970. – B. 23–58.

⁸ Bashshor Avvud Ma’ruf. Zobt an-nass vat-ta’liq alayh. – Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2019. – B. 94–112.



Porso Shamsiyev tajribasi: o‘zbek adabiy matnshunosligidan amaliy namuna

Porso Shamsiyevni mazkur maqolada adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan emas, balki matnshunoslik va manbashunoslik tamoyillarining amaliy tatbiqi nuqtayi nazaridan baholash lozim. Chunki uning ilmiy merosi, ayniqsa Alisher Navoiy asarlari matnlari ustidagi ishlari, o‘zbek adabiy matnshunosligida qo‘lyozma nusxalarni aniqlash, qiyoslash, variantlarni baholash va ilmiy-tanqidiy matn yaratish tajribasini ko‘rsatib beradi.

Navoiy merosi matnshunoslik uchun nihoyatda murakkab maydondir. Chunki Navoiy asarlari asrlar davomida turli hududlarda, turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan, ko‘plab qo‘lyozma va toshbosma nusxalarda tarqalgan. Bu nusxalarda ayrim so‘zlar, baytlar, misralar, izohlar, tartib va imlo farqlari uchrashi tabiiy. Bunday sharoitda matnshunosning vazifasi eng oson yoki eng mashhur nusxani nashr qilish emas, balki mavjud nusxalarni ilmiy baholab, muallifga yaqin matnni tiklashdir.

Shamsiyevning ahamiyati shundaki, u Navoiy matnlariga oddiy nashr obyekti sifatida emas, balki ilmiy-tanqidiy tadqiqot obyekti sifatida yondashdi. U qo‘lyozma nusxalar, avvalgi nashrlar, matn variantlari, Navoiy uslubi, aruz talablari, badiiy qurilish va tarixiy til xususiyatlarini birgalikda hisobga olish zarurligini amalda ko‘rsatdi. Shodmonov tadqiqotida Porso Shamsiyevning adabiyotshunos va matnshunos sifatidagi faoliyati, xususan Navoiy merosi bilan bog‘liq ilmiy ishlari yoritilgan⁹.

Bu yerda muhim jihat shuki, Shamsiyev tajribasi adabiy matnning o‘ziga xos uslubiyatini hisobga olgan matnshunoslik namunasi sifatida qadrlidir. Navoiy matnida bir so‘zning o‘zgarishi faqat lug‘aviy ma‘noni emas, balki bayt vazni, qofiya, radif, badiiy san‘at va tasavvufiy-ma‘rifiy ishorani ham o‘zgartirishi mumkin. Shuning uchun Navoiy matnlarini tayyorlashda matnshunos nafaqat nusxalarni qiyoslaydi, balki Navoiy poetikasi, davr tili va adabiy an‘anani ham mezon sifatida ishlatadi.

Shamsiyev faoliyatida manbashunoslik va matnshunoslik uzviy bog‘langan. Avvalo manbaviy asos qo‘lyozmalar, nashrlar, nusxalarning

⁹ Shodmonov G‘. Porso Shamsiyev – adabiyotshunos va matnshunos. – Qarshi: Qarshi DU, 2015. – B. 34–67.



tarqalish tarixi va ilmiy qiymati o'rganiladi. Keyin matnshunoslik bosqichi variantlarni qiyoslash, ishonchli o'qishni tanlash, matnni tashih qilish va ilmiy nashrga tayyorlash amalga oshiriladi. Shu ma'noda Shamsiyev tajribasi "manbashunoslikdan matnshunoslikka" o'tishning o'zbek adabiy merosidagi amaliy namunasi sifatida ko'riladi.

Biroq Shamsiyev tajribasini faqat Navoiyshunoslik yoki adabiyotshunoslik doirasida cheklab qo'yish to'g'ri emas. Uning faoliyati orqali umumiy metodologik xulosa chiqarish mumkin: har qanday yozma merosni ilmiy o'rganishda avval manba aniqlanadi, so'ng matn tiklanadi; matn esa mansub bo'lgan ilm va janr mezonlari asosida baholanadi. Demak, Porso Shamsiyev tajribasi o'zbek matnshunosligida adabiy matn ustida ishlashning ilmiy-uslubiy tamoyillarini ko'rsatib bergan amaliy maktab sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa

Qo'lyozma merosni ilmiy o'rganishda manbashunoslik va matnshunoslik bir-birini to'ldiruvchi, ammo vazifasi va predmeti jihatidan farqli bo'lgan ikki mustaqil ilmiy yo'nalishdir. Manbashunoslik manbaning kelib chiqishi, muallifga nisbati, nusxalari, saqlanish holati, tarixiy-hujjatlik qiymati va ilmiy muomaladagi o'rnini aniqlaydi. Matnshunoslik esa shu manba tarkibidagi matnning nusxaviy tarixini, variantlarini, xatolarini va muallifga yaqin shaklini tiklaydi.

Matnshunoslikda yagona umumiy qolip barcha matnlarga bir xil tatbiq etilmaydi. Har bir matn turi o'z uslubiyatiga ega. Adabiy matn vazn, qofiya, uslub va badiiy qurilish asosida; fiqhiy matn istiloh, hukm va tarjih iboralari asosida; hadis sharhi matni sanad, roviy va rivoyat yo'llari asosida; kalom matni aqidaviy istiloh va mantiqiy izchillik asosida; tafsir matni qiroat, lug'at, sabab an-nuzul va tafsiriy an'ana asosida tahqiq qilinadi. Shu sababli haqiqiy matnshunoslik faqat nusxalar qiyosidan iborat emas, balki har bir ilmnining ichki mezonini bilgan holda matnni tiklash jarayonidir.

Porso Shamsiyev tajribasi o'zbek adabiy matnshunosligida ana shu metodologik tamoyillarning amaliy ko'rinishi sifatida muhimdir. U Navoiy merosi ustida ishlash orqali manbashunoslik va matnshunoslikni uzviy bog'lagan, adabiy matnning o'ziga xos ichki qonuniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-tanqidiy matn yaratish zarurligini ko'rsatgan. Shu jihatdan Shamsiyev merosi faqat adabiyotshunoslik tarixi uchun emas, balki o'zbek



matnshunosligi metodologiyasi uchun ham muhim ilmiy tajribadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdussalom Muhammad Horun. Tahqiq an-nusus va nashruha. – Qohira: Maktabat al-Xonji, 1998.
2. Bashshor Avvod Ma'ruf. Zobt an-nass vat-ta'liq alayh. – Bayrut: Muassasat ar-Risola, 2019.
3. Abdulaziz al-Buxoriy. Kashf al-asrar an Usul Faxr al-Islam al-Bazdaviy. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1997. – J. I.
4. Abu Mansur al-Moturidiy. Kitab at-Tavhid. Tahqiq: Fathulloh Xulayf. – Iskandariya: Dor al-Jamiat al-Misriyya, 1970.
5. Shodmonov G'. Porso Shamsiyev – adabiyotshunos va matnshunos. – Qarshi: Qarshi DU, 2015.